



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI  
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O‘ZGARISHI VAZIRLIGI  
BUYRUG‘I**

**Vazirlikning yangilangan Xarid komissiyasi tarkibini  
tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlarini rejali va to‘g‘ri tashkil etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni 20-moddasiga asosan

**BUYURAMAN:**

1. Vazirlikning yangilangan Xarid komissiyasi tarkibi **1-ilovaga** muvofiq va Xarid komissiyasining ishchi guruhi tarkibi **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Vazirlikning 2023-yil 13-martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining xarid komissiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi 59-son buyrug‘ining **1 va 3-illovalari** o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. **Davlat xaridlari bo‘limi** (Kuvandikov) **ikki oy muddatda** amaldagi O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuniga kiritilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlarni inobatga olgan holda Vazirlik yangi tahrirdagi “Xarid komissiyasi to‘g‘risida”gi nizomini ishlab chiqib, tasdiqlash uchun kiritсин.

4. **Devonxona** (Yuldashev) ushbu buyruqni tegishli tarkibiy bo‘linmalarga ma‘lumot va ijro uchun yetkazsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari O. Qudratov zimmasiga yuklansin.

Vazir

A. Abduxakimov

2024-yil “23” - dekabr

481 - son



ASLIGA TO‘G‘RI

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish  
va iqlim o'zgarishi vazirining  
2024-yil "23" dekabr dagi 481 -son buyrug'iga  
1-ilova

**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi**  
**Xarid komissiyasi**

**TARKIBI\***

T/r	Ism va familiyasi	Lavozimi
1.	O. Qudratov	Vazirning birinchi o'rinbosari – <i>Xarid komissiyasi raisi</i>
2.	J. Kazbekov	Vazir o'rinbosari – <i>Xarid komissiyasi raisi o'rinbosari</i>
<b>Xarid komissiyasi a'zolari</b>		
3.	O'. Jumanov	Vazir kotibiyati rahbari
4.	E. Muxitdinov	O'rmon, bioxilmaxillik va ekoturizm siyosatini yuritish departamenti boshlig'i
5.	F. Sattorov	Ekologik siyosat departamenti boshlig'i
6.	A. Temirov - -	Yashil o'sish va iqlim o'zgarishi departamenti boshlig'i
7.	X. Mamasoliyev	Moliya-iqtisod boshqarmasi boshlig'i
8.	M. Karimova	Yuridik ta'minlash va tartibga solish ta'sirini baholash boshqarmasi boshlig'i
9.	D. Yunusov	Yuridik ta'minlash va tartibga solish ta'asirini baholash boshqarmasi bosh mutaxassisi
10.	X. Musurmonov	Korrupsiyaga qarshi kurashish va kompleks nazorat bo'limi bosh mutaxassisi
10.	B. Ziyayev	Ichki audit bo'limi boshlig'i
11.	B. Susarov	Situatsion markaz boshlig'i
12.		Tashabbuskor bo'lim***
13.	R.Kuvandikov	Davlat xaridlari bo'limi boshlig'i – <i>Xarid komissiyasi kotibi**</i>

\* *Izoh: Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, mazkur lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar yoki ushbu bo'lim bosh mutaxassisi bo'lib ishlaydigan shaxslar kiritiladi;*

*zarur hollarda Xarid komissiyasi – davlat xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirliklar, idoralar mutaxassislarini jalb etish huquqiga ega.*

**ASLIGA TO'G'RI**

*\*\* Xarid komissiyasi kotibi ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan tegishli hujjat va takliflarini baholash uchun ovoz berish huquqiga ega emas.*

*\*\*\* Tashabbuskor bo'lim – Vazirlikning asosiy funktsiya va vazifalarini amalga oshirishda tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini shakllantiruvchi tashabbuskor departament, boshqarma, bo'lim va vazirlikning tizim tashkilotlari, xarid natijalaridan bevosita foydalanuvchi tuzilmalardir.*

*Bunda tashabbuskor bo'lim xaridlarning asoslanganligi, texnik topshiriqlarning to'g'ri tuzilganligi, tuzilgan shartnomalar bo'yicha qabul qilinayotgan tovarlar, ishlar, xizmatlarning shartnoma shartlariga mosligiga mas'ul hisoblanadi.*

ASLIGA TO'G'RI



Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish  
va iqlim o'zgarishi vazirining  
2024-yil "25" dekabr dagi 481 -son buyrug'iga  
2-ilova

**Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi**  
**Xarid komissiyasi ishchi guruhi \***

**TARKIBI**

<b>T/r</b>	<b>Ism va familiyasi</b>	<b>Lavozimi</b>
1.	Lavozimiga ko'ra	Tashabbuskor bo'lim – <i>ishchi guruh rahbari</i>
2.	Lavozimiga ko'ra	Tashabbuskor bo'lim bosh mutaxassisi – <i>a'zo</i>
3.	Lavozimiga ko'ra	Xarid natijalaridan bevosita foydalanuvchi tuzilma vakili – <i>a'zo</i>
4.	Lavozimiga ko'ra	Xarid komissiyasining qaroriga asosan soha mutaxassisi sifatida kelib tushgan takliflarni mustaqil baholovchi mutaxassis – <i>a'zo **</i>

\* *Izoh: Ishchi guruh tarkibiga kiruvchi shaxslar boshqa ishga o'tgan taqdirda, mazkur lavozimiga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi;*

\*\**Xarid qilinayotgan tovarlar, ishlar, xizmatlarning murakkablik darajasi va hajmidan kelib chiqib xarid komissiyasining qaroriga asosan mustaqil baholovchi mutaxassislar soni oshirilishi mumkin.*

ASLIGA TO'G'RI



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TABIAT RESURSLARI VAZIRINING BUYRUG‘I

### O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining xarid komissiyasini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-son Qonuni talablariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan davlat xaridlarini rejali va to‘g‘ri tashkil etish maqsadida,

#### BUYURAMAN:

1. Quyidagilar:  
Vazirlik Xarid komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;  
Vazirlik Xarid komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;  
Xarid komissiyasi ishchi guruh tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
2. Xarid komissiyasi (O.Qudratov) O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi va “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda davlat xaridlarini amalga oshirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablariga qat’iy rioya etgan holda davlat xaridlarini amalga oshirish vazifasi yuklatilsin.
3. Ishchi guruhi xarid komissiyasiga barcha xaridlar yuzasidan birlamchi hujjatlarni taqdim qilish, xarid ishlarini tashkil etish, e’lonlar berish, yig‘ilish bayonlarini rasmiylashtirish va xarid hisobini yuritish vazifalari yuklatilsin.
4. Devonxona (R.Yuldashev) bir kun muddatda mazkur buyruq nusxasini Vazirlikning tegishli boshqarma va bo‘limlariga yuborilishini ta’minlasin.
5. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish va doimiy monitoring qilib borish vazirning birinchi o‘rinbosari O.Qudratov zimmasiga yuklansin.

Vazir

A. Abduxakimov

2023-yil “13” - mart  
59 - son

Tabiat resurslari vazirligining  
2023-yil "13" 03 dagi  
59 -sonli buyrig'iga  
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining Xarid komissiyasi  
TARKIBI\***

T/r	Ism va familyasi	Lavozimi
1.	O.Qudratov	Vazirning birinchi o'rinbosari <i>Xarid komissiyasi raisi</i>
2.	J.Kazbekov	Vazir o'rinbosari <i>Xarid komissiyasi raisi o'rinbosari</i>
3.		Davlat xaridlari va infratuzilma bo'limi boshlig'i <i>Xarid komissiyasi kotibi**</i>
<b>Xarid komissiyasi a'zolari</b>		
4.	Lavozimiga ko'ra	Moliya-iqtisod bo'limi boshlig'i
5.	Lavozimiga ko'ra	Korrupsiyaga qarshi kurashish va ichki audit bo'limi boshlig'i
6.	Lavozimiga ko'ra	Axborot-tahlil va strategik rejalashtirish bo'limi boshlig'i
7.	Lavozimiga ko'ra	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va kadastrni yuritish bo'limi boshlig'i
8.	Lavozimiga ko'ra	Yuridik ta'minlash va tartibga solish ta'sirini baholash bo'limi boshlig'i
9.	Lavozimiga ko'ra	Atrof muhit monitoringi, gidrometeorologiya, iqlim o'zgarishi va cho'llanishga qarshi kurashish bo'limi boshlig'i
10.	Lavozimiga ko'ra	Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar bo'limi boshlig'i

\* *Izoh: Komissiya tarkibiga kiruvchi shaxslar boshqa ishga o'tgan taqdirda tegishli lavozimga yangidan tayinlangan shaxs yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi;*

\*\* *Xarid komissiyasi kotibi ovoz berish huquqiga ega emas.*

Tabiat resurslari vazirligining  
2023-yil “13” 03 dagi  
59 -sonli buyrig‘iga  
2-ilova

**O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining Xarid komissiyasi  
to‘g‘risidagi  
NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining Xarid komissiyasini (keyingi o‘rinlarda – vazirlik) tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo‘yicha Xarid komissiyasining (keyingi o‘rinlarda - Komissiya) faoliyatini tartibga soladi.

2. Komissiya – Vazir buyrug‘i bilan shakllantiriladi va unga ko‘ra tarqatib yuboriladi;

Komissiya xarid qilish tartib-taomillari natijasiga taklif etilgan eng ma‘qul tovar va xizmatlarni xarid qilish to‘g‘risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega bo‘lgan kollegial organdir.

3. Komissiya faoliyatining asosiy maqsadi, xarid jarayoni ishtirokchilarning takliflarini buyurtmaga muvofiqligidan kelib chiqib, moliyaviy jihatdan eng ma‘qul takliflarni tanlash va ular yuzasidan bitimlar tuzish hamda davlat xaridlarini raqobatlashuv tamoyillari orqali amalga oshirilishini ta‘minlashdan iborat.

4. Komissiya yig‘ilishi, Vazirlik xaridlari reja-jadvalida ko‘rsatilgan hamda kelib tushgan buyurtmalarni xarid qilish maqsadga muvofiqligi bo‘yicha qaror qabul qilingan (rahbariyat ko‘rsatmasi va boshqa holatlar), tovar va xizmatlarni sotib olish jarayonida amalga oshiriladi;

Komissiya ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruh) Vazir buyrug‘i bilan tashkil etiladi va tarqatib yuboriladi.

5. Komissiya o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O‘RQ–684-sonli “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni, ushbu nizom va boshqa sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlariga asosan olib boradi.

**2-bob. Komissiyaning vazifalari**

6. Komissiya ishining asosiy maqsadi xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilarining takliflarini buyurtmaga muvofiqlik darajasi bo‘yicha xolis baholashdan va tartibga solishdan hamda davlat xaridlari raqobatlashuv usullari orqali amalga oshirilganda g‘olibni (g‘oliblarni) tanlashdan iborat.

Komissiya quyidagi vazifalarni bajaradi:

xarid qilish hujjatlarini kelishadi;

takliflar qabul qilish muddatlarini belgilaydi;

takliflarni ochish tartib-taomillarini belgilaydi;

takliflarni baholash mezonlarini va usullarini belgilaydi;

zarur bo‘lganda taklif kiritish tartibini, hajmini va uni ta‘minlash shaklini belgilaydi;

xarid qilish tartib-taomili ishtirokchilarining takliflarini ochishni amalga oshiradi;

dastlabki malaka tanlovini o'tkazadi, agar xarid qilish hujjatlari shartlarida bu nazarda tutilgan bo'lsa;

zarur bo'lganda dastlabki malaka tanlovi natijalarini hisobga olgan holda qaror qabul qiladi;

zarur bo'lganda baholash guruhini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qiladi;

talabgorlar tomonidan xarid jarayonlariga taklif etilayotgan bir birlik mahsulotlarning namunalarini qabul qilib olish va ularni saqlash uchun maxsus joylar tashkil etadi;

talabgorlar tomonidan tender shartlariga asosan takliflarni kafolatlash maqsadida o'tkazilgan garov mablag'lari hisobini yuritadi;

xarid qilish tartib-taomillarining raqobatlashuv turlari g'olibini va zarur bo'lganda zaxiradagi g'olibni belgilaydi yoki savdoni amalga oshmagan deb topadi.

### **3-bob. Komissiyaning huquqlari**

7. Komissiya quyidagi huquqlarga ega:

eng yaxshi takliflarni tanlashni va tenderni elektron shaklda o'tkazish chog'ida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda masofadan turib ovoz berish;

Komissiyaning har bir a'zosi ovoz berishda yoqlab ovoz berishi;

qarshi ovoz berishi;

unda ishtirok etishdan bosh tortishi huquqiga ega.

Komissiya raisi ovoz berishda ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega emas.

### **4-bob. Komissiyaning majburiyatlari**

8. Xarid qilish nazarda tutilgan barcha xarid hujjatlarni qonunda belgilangan muddatlarda ko'rib chiqishga.

9. Vazirlik xaridlari reja-jadvali va kelib tushgan buyurtmalarni xarid qilinishi rejalashtirilgan muddatlarda tovar va xizmatlarning xaridlarini amalga oshiradi.

10. Komissiyaga taqdim etilgan xaridlar va buyurtmalar muhokama natijalari to'g'risidagi axborot asosida Komissiyaning tegishli majlisi bayonnomasi rasmiylashtiradi va imzolangan kundan boshlab uch ish kuni ichida davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiradi.

11. Komissiya faoliyati davomida, uning a'zolari hamda tuzilayotgan bitimga aloqasi bo'lmagan uchinchi shaxslarning bevosita va bilvosita foydasiga qaratilgan qilmishlarga (harakat va harakatsizlik) yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladi.

### **5-bob. Komissiyaning javobgarligi**

12. Komissiya Vazirlik xaridlari ijrochisini aniqlash tartib-taomillarining davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilik talablariga muvofiqligi, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning asosliligi va beg'arazligi uchun javobgar bo'ladi.

13. Komissiya Vazirlik xaridlarining boshqa subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

14. Komissiya tomonidan o'z vakolati doirasida qabul qilinadigan qarorlar Vazirlik buyurtmachisi va xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari uchun



majburiydir.

15. Xarid qilish tartib-taomillarni amalga oshirishda boshqa xarid qilish tartib-taomillari subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazadigan hamda ushbu huquqlar va qonuniy manfaatlarni cheklaydigan har qanday manfaatlar to'qnashuvi ko'rinishlarining oldini olishi shart.

## **6-bob. Xarid qilish tartib-taomillari**

16. Xarid qilish tartib-taomillari:

Xarid ishtirokchisi (bundan buyon matnda ishtirokchi deb yuritiladi) davlat xaridlari jarayonida tovar va xizmatlarni yetkazib berish uchun talabgor sifatida ishtirok etayotgan, O'zbekiston Respublikasining rezidenti yoki norezidenti bo'lgan jismoniy yoki yuridik shaxsdir.

17. Xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish turlari quyidagilardan iborat:

elektron do'kon;

boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion;

eng yaxshi takliflarni tanlash;

tender;

to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan ruxsat etilgan xaridlarning boshqa raqobatli turlari.

Xarid qilish tartib-taomillari elektron shaklda amalga oshirilishi mumkin.

## **7-bob. Komissiyaning reglamenti**

18. Komissiya a'zolari, tarkibi va soni xarid qilish tartib-taomillarining turiga bog'liq bo'ladi hamda olinayotgan tovar va xizmatlarning xususiyati inobatga olingan holda o'zgartirilishi mumkin.

19. Komissiya a'zolari xolis bo'lishi va xarid qilish tartib-taomili g'olibini tanlashda shaxsan manfaatdor bo'lmasligi kerak, Komissiya a'zolariga:

xarid ishtirokchisi Komissiya a'zosining yaqin qarindoshligi aniqlanganda;

xarid ishtirokchisi sifatida qatnashayotgan ishtirokchining tasischisi bo'lgan taqdirda yoki ustav fondida ulushi borligi aniqlangan taqdirda Komissiya a'zosi sifatida qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi;

Komissiyaning a'zolari hamda ekspertlar xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirishda o'z ishtirokidagi davlat xaridlariga doir bitimning natijasi bo'lgan har qanday shaxsiy foydani bevosita yoki bilvosita olish huquqiga ega emas;

Komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilinguniga qadar ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, uning o'zi esa o'zini o'zi rad etmagan bo'lsa, bunday a'zoning mazkur masala bo'yicha ovoz berishiga yo'l qo'yilmaydi;

Komissiya a'zosining affillanganligi mavjudligi qaror qabul qilinganidan keyin ma'lum bo'lib qolgan bo'lsa, bunday a'zoning ovozi mazkur masala bo'yicha ovoz berish natijalaridan chiqarib tashlanadi.

20. Komissiya faoliyatiga rais rahbarlik qiladi, u Komissiya majlislarini chaqiradi va olib boradi, ovozga qo'yishni va komissiya tomonidan qabul

qilinadigan qarorlarni e'lon qiladi, shuningdek komissiya majlislarining bayonnomalarini imzolaydi. Komissiya raisi yo'qligida uning vazifalarini komissiya raisining o'rinbosari bajaradi.

21. Komissiyaning tezkor faoliyatini uning mas'ul kotibi tashkil etadi.

22. Komissiya o'z faoliyatini quyidagi davlat xaridlarining asosiy tamoyillariga tayangan holda olib boradi:

kasbiy mahorat va mas'uliyatlilik;

asoslanganlik;

moliyaviy mablag'lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

raqobat va xolislik;

mutanosiblik;

davlat xaridlari tizimining yagonaligi va yaxlitligi;

korruptsiyaga yo'l qo'ymaslik.

Davlat xaridlarining asosiy tamoyillariga xarid jarayonining barcha bosqichlarida majburiy tarzda amal qilinadi.

### **8-bob. Elektron do'kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish mezonlari**

23. Vazirlik tomonidan elektron do'konda quyidagi davlat xaridlari amalga oshirilishi mumkin:

bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan oshmaydigan, biroq bir yilda bir buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining ikki ming besh yuz baravari miqdordagi summadan ko'p bo'lmagan tovarlar;

bir buyurtmachi uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan oshmaydigan miqdordagi ishlar, xizmatlar.

Komissiya xarid qilish tartib-taomili yakuniga ko'ra elektron do'konda tovar (ish, xizmat) mavjud emasligi sababli shartnoma tuzilmagan bo'lsa, buyurtmachi mustaqil ravishda tanlangan yetkazib beruvchi bilan shartnoma tuzish orqali to'g'ridan to'g'ri xaridni amalga oshirishga haqli.

To'g'ridan-to'g'ri xarid natijasida tuzilgan shartnoma u tuzilgan sanadan e'tiboran uch kundan kechiktirmay ish guruh tomonidan portalga joylashtiriladi.

Vazirlik tomonidan Elektron do'kon vositasida davlat xaridlarini amalga oshirish mezonlari, Elektron do'konda takliflarning joylashtirilishi, Elektron do'konda xarid qilish tartib-taomilini o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son Qonunning 49-51-moddalariga asoslanib amalga oshiriladi.

### **9-bob. Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksionni o'tkazish mezonlari**

24. Vazirlik tomonidan boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion (bundan buyon matnda auksion deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

tovarning standart xususiyatlarga ega bo'lishi;

tovarning texnik, ekspluatatsiya qilinish xususiyatlarini va boshqa

xususiylarini baholash hamda taqqoslash zarurati mavjud emasligi;

tovarning qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravarigacha bo'lgan miqdorini tashkil etishi kerak.

Xizmatlar va ishlarning davlat xaridi auksion obyekti bo'la olmaydi.

Tovarni e'londa bayon etilgan shartlar asosida eng past narx bo'yicha yetkazib berishni taklif qilgan ishtirokchi auksion g'olibi bo'ladi. Bunda mazkur norma belgilangan sifat standartlariga muvofiq bo'lgan tovarlarni yetkazib berish talabini bekor qilmaydi.

Komissiya ishchi guruhi, Vazirlik tomonidan tasdiqlangan auksion o'tkazish haqida xaridlar reja-jadvaliga muvofiq, birlamchi hujjatlarni portalga e'lon joylashtiradi

xaridlar reja-jadvali uch oy oldin maxsus axborot portaliga joylashtirilmagan bo'lsa, boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tkaziladigan auksion orqali davlat xaridlarini amalga oshirishda tovarlarni yetkazib berish muddati yetti kundan kam bo'lmasligi kerak.

Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon auksion g'olibini aniqlangunga qadar kamida besh kun avval joylashtiriladi.

25. Auksion tugaydigan vaqt kelganda portal auksion o'tkazilgan vaqt davomida berilgan takliflar orasida eng past narxni taklif qilgan taklifni avtomatik ravishda aniqlab oladi. Eng past narx ko'rsatilgan taklifni bergan ishtirokchi auksion g'olibi sifatida portal tomonidan saralab olinadi. Ijrochining nomi portalda aks ettirilib, ushbu tizim tuzilgan bitimni avtomatik ravishda qayd etadi va buyurtmachining buyurtmanomasida bayon etilgan shartlarga muvofiq shartnomani shakllantiradi.

Agar auksionda bir nafar ishtirokchi ishtirok etgan bo'lsa yoki hech kim ishtirok etmagan bo'lsa, auksion o'tkazilmagan deb hisoblanadi va g'olib aniqlanmaydi, Komissiya auksionni besh kunga uzaytiradi. Auksionni uzaytirish avvalgi auksion tamom bo'lgan paytdan e'tiboran uch kun ichida Vazirlik tomonidan amalga oshiriladi. Auksionni uzaytirishda Vazirlik boshlang'ich narxni, texnik talablarni, xususiylarni yoki texnik topshiriqni qayta ko'rib chiqadi.

Auksionni uzaytirish avvalgi auksion tamom bo'lgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida Komissiya yig'ilishi o'tkaziladi va uzaytirish to'g'risidagi qarori natijasi boyicha ishchi guruh tomonidan amalga oshiriladi.

Komissiya bevosita Auksion o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon berish, Auksionni o'tkazish tartibi, Auksionni o'tkazilmagan deb e'lon qilishning umumiy tartibi va oqibatlari O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son Qonunning 53-55-moddlariga asosan amalga oshiriladi.

### **10-bob. Eng yaxshi takliflarni tanlashni o'tkazish mezonlari**

26. Vazirlik eng yaxshi takliflarni tanlashni o'tkazish (keyingi o'rinlarda-tanlov) orqali xaridlarni amalga oshirish uchun Komissiya o'z faoliyatini olib boradi.

27. Komissiyasi a'zolarining tarkibi va soni olinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) xususiylarini hisobga olgan holda o'zgarishi mumkin.

28. Xarid qilish xo'jalik faoliyati doirasida o'tkazilganda Komissiyaga Vazirlik vakillari orasidan, zarur bo'lgan taqdirda ovoz berish huquqiga ega

ekspertlar jalb etilgan holda shakllantiriladi.

29. Xarid qilish loyiha faoliyati doirasida o'tkazilganda Komissiya vazifalarini belgilangan tartibda tashkil etiladigan loyihani amalga oshiruvchi guruh bajaradi, u xarid qilish tartib-taomillarini o'tkazish natijalari to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

30. Qiymati bazaviy hisoblash miqdorining besh ming baravaridan ortiq miqdordagi davlat xaridlari o'tkazilganda Komissiya tarkibiga buyurtmachining vakillaridan tashqari O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "O'zInjining" respublika loyihalashtirish institutining vakillari ishtirokidagi Komissiyasi faoliyat olib boradi.

Komissiya tomonidan belgilangan muddatda o'tkazilganda elektron tizim avtomatik ravishda ishtirokchilar tomonidan joylashtirilgan va ularning tanlov takliflarini tashkil etuvchi elektron xujjatlarni ko'rish imkoniyatini beradi.

Tanlov takliflarini baholash vaqtida Komissiyaning mas'ul ishchi guruhi elektron tanlov ishtirokchilaridan ularning tanlov takliflari yuzasidan tushuntirishlar so'rashga haqli. Mazkur jarayon elektron shaklda o'tkaziladi.

Komissiya tanlov hujjatlarida belgilangan shartlardan kelib chiqib elektron tizim avtomatik ravishda:

tanlov taklifining texnik va narx qismlarini baholashni hisobga olgan holda eng yuqori ball to'plagan ishtirokchini (ball usulidan foydalanganda);

tanlov takliflarining texnik qismini baholash natijalariga ko'ra elektron tanlovda ishtirok etishni davom ettirishga ruxsat berilgan ishtirokchilar orasidan eng past narxni taklif etgan ishtirokchini (eng past narx usulidan foydalanganda) g'olib sifatida aniqlaydi.

Ikki yoki undan ortiq ishtirokchilar bir xil ball to'plagan bo'lsa (ball usulidan foydalanganda) yoki bir xil narx taklif qilgan bo'lsa (eng past narx usulidan foydalanganda), tanlov taklifini barchadan oldin joylashtirgan ishtirokchi g'olib deb topiladi.

Zaxira ijrochisini aniqlash mazkur bandeda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tanlov takliflarini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra Komissiyaning ishchi guruhi elektron tizimda Komissiya yig'ilishining elektron bayonnomasini tuzadi hamda tasdiqlash uchun komissiya a'zolariga yuboradi.

Komissiya a'zolari elektron bayonnomani elektron raqamli imzolaridan foydalangan holda tasdiqlaydi.

Komissiya tasdiqlangan tanlov hujjatlari, shartnoma loyihasi, shuningdek tanlov o'tkazish haqidagi e'lon tanlov ishtirokchilarining takliflarini qabul qilish muddati tugashidan kamida o'n kun avval ishchi gurug tomonidan portalga joylashtiriladi.

Komissiya tanlov natijalari bo'yicha shartnoma tanlov hujjatlarida va o'zi bilan shartnoma tuzilayotgan tanlov ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida g'olib aniqlangan vaqtdan e'tiboran o'n kundan kechiktirilmagan muddatda tuziladi.

Vazirlik tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlash (bundan buyon matnda tanlash deb yuritiladi) vositasidagi davlat xaridi, Tanlashni o'tkazishda xarid

komissiyasi, Tanlash o'tkazilishi to'g'risidagi e'lonlarni berish, Tanlash bo'yicha xarid qilish hujjatlari, Tanlash ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi, Tanlashni o'tkazish, Tanlash g'olibini aniqlash va Tanlash natijalarini rasmiylashtirish O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son Qonunning 56-63-moddalari bilan amalga oshiriladi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi.

### **11-bob. Tender o'tkazish mezonlari**

31. Vazirlik tomonidan Tender vositasidagi davlat xaridi quyidagi shartlar bir vaqtning o'zida bajarilgan taqdirda amalga oshiriladi:

Vazirlik tomonidan xaridlar reja-jadvali yoki tegishli tuzulmalarining buyurtmalari bo'lgan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) qiymati bir shartnoma bo'yicha bazaviy hisoblash miqdorining olti ming baravaridan ortiq miqdorni tashkil etganda, Komissiya yig'ilishi o'tkaziladi, ishchi guruh tomonidan birlamchi hujjatlar Komissiyaga taqdim qilinadi, Komissiyaning tegishli ijobiy xulosasiga asosan xarid qilish hujjatlari Kompleks ekspertiza qilish markaziga yuboriladi.

Kompleks ekspertiza qilish markazining ijobiy xulosasi olinganidan keyin Tender komissiya yig'ilishi o'tkaziladi.

Tender o'tkazish haqidagi qaror qabul qilinganidan keyin ishchi guruh tender hujjatlari loyihasi, shartnomasi va e'lonining matni ishlab chiqariladi va Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari maxsus axborot portali orqali davlat xaridlarining elektron tizimiga joylashtiriladi.

Tender ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon berilgan bir vaqtning o'zida belgilanadi va takliflar Komissiya tomonidan ko'rib chiqish 45 ish kuni ichida amalga oshiriladi.

Tender takliflari tender hujjatlarining talablariga muvofiq kelsa, u tegishli tartibda rasmiylashtirilgan deb topiladi. Mos kelmaganligi to'g'risidagi qaror, ushbu qaror qabul qilingan kunda ishtirokchining shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

Tender majburiy tartibda elektron shaklda o'tkaziladi, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno.

32. Tender ishtirokchilarining takliflarini ochish, ko'rib chiqish va baholashni Komissiya yig'ilishida tender takliflari solingan konvertlarni ochish jarayoni videoyozuvga tushiriladi. Konvertlarni ochish davomida ishtirokchilar taqdim etgan barcha hujjatlar va tijorat taklifining narxi o'qib eshittiriladi.

Shartnomani bajarishning eng yaxshi shartlari tender ishtirokchilarining takliflarini baholash bo'yicha e'lon qilingan mezonlar asosida Komissiya tomonidan aniqlanadi, takliflarni ko'rish natijasida ularning hamma takliflari rad etilganda yoki takliflardan faqat biri talabga muvofiq kiritilgan taqdirda tender o'tkazilmagan deb topiladi

Tender natijalari bo'yicha shartnoma tender bo'yicha xarid qilish hujjatlarida va shartnoma tuzilayotgan tender ishtirokchisi tomonidan berilgan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida tuziladi.

Takliflarni ko'rib chiqish va baholash natijalari takliflarni ko'rib chiqish hamda baholash bayonnomasida qayd etiladi. Takliflarni ko'rib chiqish va baholash bayonnomasi Komissiyaning barcha a'zolari tomonidan imzolanadi hamda undan

olingan ko'chirma va tender natijalari bo'yicha tuzilgan shartnoma to'g'risidagi axborot ishchi guruh tomonidan maxsus axborot portaliga u tuzilgan sanadan boshlab uch ish kunidan kechiktirmay joylashtiriladi.

Komissiya: Tender o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon berish; Tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari; Tender ishtirokchilarining takliflarini berish tartibi; Tender ishtirokchilarining takliflarini ko'rib chiqish va baholash; Tender natijalari bo'yicha shartnoma tuzish O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son Qonunning 64-70-moddalariga asosan amalga oshiriladi.

### **12-bob. To'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha amalga oshiriladigan davlat xaridlari**

33. Vazirlik tomonidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021 yil 22-apreldagi O'RQ-684-son Qonunning 71-moddasiga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3953-son Qaroriga asosan amalga oshiriladi.

Vazirlik tomonidan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzilganligi to'g'risidagi axborotni shartnoma tuzilgan paytdan e'tiboran uch ish kuni ichida maxsus axborot portaliga ishchi guruh tomonidan joylashtirishi shart.

34. Vazirlik tomonidan yagona yetkazib beruvchidan davlat xaridlari O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021 yil 22-apreldagi O'RQ-684-son Qonunning 72, 73- moddalari muvofiq amalga oshiriladi.

### **13-bob. Komissiyaning majlislari**

35. Komissiyaning majlislari komissiya a'zolari hozirligida yuzma-yuz o'tkaziladi. Yuzma-yuz majlislar videokonferensiyalar (telekonferensiyalar va hokazo) shaklida o'tkazilishi mumkin.

Komissiya Vazirlik xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda Komissiya yig'ilishi chaqiriladi, xaridlar summalaridan kelib chiqb: elektron do'kon, auksion, tanlov, tender o'tkazish to'g'risida qaror qabul qiladi.

36. Komissiya majlisi, Vazirlik xaridlar reja-jadvali yoki Vazirlik tuzilmasining buyurtmalariga asosan o'tkaziladi.

Komissiya Vazirlik xaridlarining predmetidan kelib chiqqan holda, o'z faoliyatini amalga oshirish uchun ekspertlarni, shuningdek boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar mutaxassislarini jalb etish mumkin.

Vakolatli organ vakilini boshqa davlat buyurtmachisining xarid komissiyasi tarkibiga kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Komissiya qarori, a'zolari umumiy sonining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Ovozlar teng bo'lib qolgan taqdirda Komissiya raisining ovozi hal qiluvchi ovoz bo'ladi.

Komissiya a'zolarida xarid qilish tartib-taomillari ishtirokchilari bilan affillanganlik xususiyatiga ega aloqalar mavjud bo'lgan taqdirda, xarid komissiyasining bunday a'zosi bu masala ko'rib chiqilgan majlisda o'zini o'zi rad etishi va mazkur masala bo'yicha ovoz berishda ishtirok etmasligi kerak, bu haqda

39. Vazirlik xaridlari subyektlari va ularning mansabdor shaxslari O'zbekiston Respublikasi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-son Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi va shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga yuklatilgan majburiyatlar lozim darajada bajarilishi uchun javobgar bo'ladi.

40. Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

komissiya majlisining bayonnomasida qayd etiladi.

#### **14-bob. Komissiyaning ishchi guruhi**

37. Vazirlikningning tegishli buyrug‘i bilan tashkil etilgan xodimlar Komissiyaning ishchi guruhi hisoblanadi.

Ishchi guruh o‘zining xizmat vazifalarini Vazirlik tomonidan tasdiqlangan Nizomga va boshqa sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga asosan olib boradi.

38. Ishchi guruh quyidagilarni amalga oshiradi:  
komissiyaga barcha xaridlar yuzasidan birlanmchi hujjatlarni taqdim qiladi;  
xarid ishlarini tashkil qiladi;  
e‘lonlar beradi;  
yig‘ilish bayonnomalarini rasmiylashtiradi;  
xaridlar hisobini yuritadi.  
Ishchi guruhga qonun hujjatlarga muvofiq boshqa vazifalar ham yuklatilishi mumkin.

#### **15-bob. Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik**



Tabiat resurslari vazirligining  
2023 yil "13" 06. dagi  
59 -sonli buyrig'iga  
3-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Tabiat resurslari vazirligining  
Xarid komissiyasi ishchi guruh  
TARKIBI**

T/r	Ism va familyasi	Lavozimi
1.	Lavozimiga ko'ra	Davlat xaridlari va infratuzilma bo'limi boshlig'i (ishchi guruh rahbari)
2.	Lavozimiga ko'ra	Atrof muhit monitoringi, gidrometeorologiya, iqlim o'zgarishi va cho'llanishga qarshi kurashish bo'limi (ishchi guruh a'zosi)
3.	Lavozimiga ko'ra	Xarid natijalaridan bevosita foydalanuvchi tuzilma (boshqarma yoki bo'lim) vakili. (ishchi guruh a'zosi)

*\* Izoh: Ishchi guruh tarkibiga kiruvchi shaxslar boshqa ishga o'tgan taqdirda tegishli lavozimga yangidan tayinlangan shaxs yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklatilgan shaxslar kiritiladi;*